



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНЩИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.** Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.

Ilmiy rahbar: prof. B.Mirkomilov

Magistr: Sh.Boymatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada bobolarimizning o'z ozodligi va erki uchun olib borilgan kurashlar podsho Rossiyasi zulmiga qarshi ko'tarilgan Jizzax qo'zg'olonining sabablari, oqibatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Jevachi, ozodlik uchun kurash, Jizzax qo'zg'oloni, Chor Rossiyasi, podpolkovnik Rukin, Chor hukumati vakili A.Kerenski

Аннотация: В этой статье дается информация о причинах и последствиях, Джизакского восстания в котором наши предки боролись за свою свободу против угнетения царской России

Ключевые слова: Абдурахман Джевачи, борьба за свободу, Джизакское восстание, Царское Россия, подполковник Рукин Представитель царского правительство А.Керенски

Annotation: This article provides information about the causes and consequences of the Jizzakh uprising, in which our ancestors fought for their freedom against the oppression of imperial Russia

Key words: Abdurahmon Jewachi, Struggle for freedom, The Jizzakh uprising, Tsarist Russia, Lieutenant Colonel Rukin, representative of the Tsarist government A.Kerenski

Tarixdan ma'lumki 1916-yil sodir bo'lgan qo'zg'olonlar tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan. Biz ushbu ma'lumotlarni tarixshunoslarning asarlaridan, tarixga guvohlik beruvchi ilmiy asoslangan asarlardan, faktlardan bilishimiz mumkin bo'ladi. Keling, avvalo, maqola mavzusini yoritishdan oldin tarixshunoslik haqida qisqacha to'xtalsak, tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona anglashdan, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, tarixchilarni muayyan tarixiy-ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yo'naltirishdan iborat. Shuningdek, tarixshunoslik fan taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot markazlari tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish kabi vazifalarni ham bajaradi. Tarix, madaniy-ma'naviy an'analar, qadriyatlarining shakli, mazmuni, mohiyati kabilarni tarix orqali onglarga singdirish doimiy dolzarb masala bo'lib qoladi.

Mustaqillik yo'li uzoq va mashaqqatli bo'lib, xalqimizning zo'ravonlik, zulm va mutellikka qarshi isyonlari davomli ravishda ro'y berib turgan. Ana shunday ozodlik uchun kurashlardan biri 1916 yil Jizzaxda bo'lganini barcha yurtdoshlarimiz yaxshi bilishmasa kerak. Chor Rossiyasi mustamlakachilarining jabr-zulmidan azob chekkan xalqning ko'chaga chiqishi tarixda Jizzax qo'zg'oloni nomi bilan qoldi. Uning tarixiy ahamiyati shundaki, u ezilgan xalqning erk va ozodligi, haq-huquqi uchun mardonavor kurashchilarni maydonga chiqardi.

Jafokash elning ongu tafakkurida mustamlakachilik va zulmga qarshi birlashib kurashish orqaligina ozodlikka erishish mumkinligi haqida umid uyg'otdi.

Chor Rossiyasi podshosi Nikolay II ning «Turkiston o'lkasining 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan aholisini mardikorlikka olish (aslida birinchi jahon urushiga jo'natish) haqida»gi farmoni aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada o'lkaning Xo'jand, Samarqand, Farg'ona, Kattaqo'rg'on va Jizzax shaharlarida namoyishlar boshlandi. Jizzaxda boshlangan namoyish esa 13 iyulda qo'zg'olon tusini oldi. Shahar xalqi Jizzax uezdi hokimi podpolkovnik Rukindan mardikorlikka yozilganlar ro'yxatini talab qildi. Hokim bunga javoban shahar xalqiga qarshi qurol ishga solmoqchi bo'lganida qo'zg'olonchilar tomonidan o'ldirildi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Turkiston general gubernatori tomonidan safarbar etilgan harbiy kuchlarga qarshi xalq mardonavor jang qildi. O'sha davrda Samarqand viloyatining Jizzax uezdidagi bu voqealar aniq maqsad — Rossiyadan ajralib, mustaqillikka erishish uchun uyushgan tarzda olib borilgan. [1. B. 52]

Qo'zg'olon arafasida Jizzaxda ham butun o'lkadagi kabi zulm-zo'ravonlik, adolatsizlik hukmron edi. Aholi asosan, don, g'alla yetishtirish bilan mashg'ul bo'lgan. Chor Rossiyasi tomonidan saylangan hokimlarning turli soliq yig'implari xalqni butunlay holdan toydirgan. Mahalliy aholi yerlari tortib olinib, rus askarlari oilalariga berilgan. Odamlar turmushi va oilada qora qozonni qaynatishda katta qiyinchilikka duch kelgan.

Jizzax uezdi boshlig'ining ma'lumotnomasida qayd etilishicha, aholining iqtisodiy ahvoli shu darajada og'ir bo'lganki, ular qishdan bahorga chiqquncha, gadoy darajasiga tushib qolgan. Sadaqa bilan kun ko'rib, bir burda non u yoqda tursin, tariqqa ham zor bo'lgan.

Sobiq Sovet davrida Jizzax qo'zg'oloni haqida yozilgan barcha maqola, tarixiy risola, ilmiy dissertatsiyalarda bu isyon din peshvolarining qutqusi bilan ro'y bergan, deb noto'g'ri talqin qilindi.

Aslida qo'zg'olon milliy ozodlik harakati ko'rinishida edi. Qo'zg'olonning boshida xalq ozodligini ko'rishni orzu qilgan o'zbek elining mard o'g'lonlari turardilar. Ulardan biri Abdurahmon jevachi (Abdujabborov) edi. U boy ham, dindor ham emasdi. U Forishning Ko'hnabozor qishlog'ida yashagan, askarlar jang vaqtida kiyadigan kiyim — jeva to'qib, dehqonchilik qilib kun kechirgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq o'rtasida ham Jevachi laqabi bilan tanilgandi.

1916 yil 15 iyul kuni Abdurahmon jevachi boshliq qo'zg'olonchilar Forishdagi pristav Borillani qo'lga olish uchun mahkama binosiga yurish boshlaydi. Ammo u cho'l orqali Jizzaxga qochib ketadi, qo'zg'olonchilar esa boshqa rus amaldorini o'ldiradilar. Jevachi boshliq qo'zg'olonchilarni Sangzordan To'raqul To'rabekov rahbarligidagi aholi ham qo'llab-quvvatlab ularga qo'shiladi. Zomin xalqi ham jizzaxlik ozodlik harakati a'zolariga xayrixohlik bildiradilar. Mustaqillik uchun kurashayotganlar Buxoro amiriga maktub yo'llab yordam so'raydilar. Biroq bu maktub sotqin mirshablar qo'lga tushib, amirga yetib bormaydi. Rus bosqinchilariga

qarshi kurashda Jizzax atrofidan to'rt ming odam yig'iladi. Kimdir qo'lga ketmon, lo'm bilan ozchilik xaloyiq esa miltiq bilan dushmanga qarshi chiqadi. Qozg'olon

haqida Shoir yuksak badiy mahorat bilan xalq ommasining chorizmga va mahalliy ma'murlarga, boylar va amaldor-to'ralarga qahr-g'azabi ortib borib, ochiq qo'zg'olonga aylanib ketganligini yorqin satrlarda ifoda etadi:

Podshoga qarshi boraylik,

Podsho kimdir, biz bilmaymiz,

Podsho yordamchisin topib,

Urra deb ot qo'yayliq

Yo olaylik yo o'laylik

Sira qaytmanglar haloyiq,

Mehnatkashsan zulm o'tdi,

Suyaklar o'rtanib ketdi.

Qattiq zulm o'tgandan so'ng Shuncha xalq qo'zg'olon qibdi. [1. B.45]

Jizzax qo'zg'olonchilariga Chor hukumati beshafqat munosabatda bo'ldi. Mustabid hukumat xalqqa qarshi 13 rota soldat, 2 ta artilleriya qismi, kazak otryadlari va sapyorlarni yuboradi. Ular deyarli quolsiz olomoni shafqatsizlik bilan qirib tashlashadi. Rus askarlari Jizzaxni, keyin Zomini egallaydi. Sangzorda qo'zg'olonchilar tutdek o'qqa tutiladi.

Ozodlik uchun ko'chaga chiqqan xalq to'qnashuvda mag'lubiyatga uchraydi. Ularga boshchilik qilgan Abdurahmon jevachi va uning sheriklaridan 50 kishi qo'lga olinib qatl ettirilgan, uch ming fuqaro hibsga olindi. Qo'zg'olon ishtirokchilari beayov jazolanib, uylariga o't qo'yildi. Qishloqlar vayron etildi.

Jizzax fojiasi haqida bir guruh jadidchilar Peterburgga borib podshoh dumasiga arz qilganlar. Duma o'sha zamonda komissiya tuzib, qo'zg'olon sabablarini o'rganishga yuboradi. O'sha komissiyaga rahbarlik qilgan Chor hukumati vakili A.Kerenskiy dumaga topshirgan hisobotida shunday yozadi: Men Jizzax vayronalarini borib ko'rdim, janoblar, men ikki frontda — Kavkaz va g'arbiy frontda bo'lganman, lekin bunaqa qirg'inbarotni ko'rmaganman.

Abdurahmon jevachi boshchilik qilgan ozodlik harakatining asl maqsadi o'lkada chorizm zulmiga, mardikorlikka odam olinishiga qarshi kurash bo'lgan. Erk va ozodlik uchun kurashgan Nazirxo'ja Eshon, Muhammad Rahim, Abduraxmon jevachi va boshqalarning xatti-harakati chor hukumati va sovet mafkurachilari tomonidan o'sha paytda qattiq qoralandi. Biroq ularning mustamlakachilikka, zulm va qullik kishanlariga qarshi kurashi milliy mustaqillik uchun kurashlar tarixida o'chmas sahifa bo'lib qoldi. Afsuski, tarix sahifalarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqimizning erki, mustaqilligi uchun kurashga o'tlanib, bu yo'lda jonini qurbon qilgan ozodlik yalovbardorlarining hammasining ham nomlari yo'q. Ozodlik uchun kurashganlarning

aksariyati esa isyonchi, fitnachi, buzg'unchi sifatida yosh avlod ongiga singdirildi. O'z yurti, jonajon qishlog'ini jabr-zulmdan xalos etishga o'tlangani, xalqning tinkamadorini quritgan mustabid tuzumga qarshi kurashgani uchun ularga ozodlik

kurashchilari emas, bosqinchi tamg'asi bosildi. Qariyb, sakson yildan ortiq vaqt mobaynida barchamiz bunday bo'htonlarga ishonib keldik. Ming shukurlar bo'lsinki, mustaqillik tufayli Jizzax qo'zg'olonida old qatorda turganlar nomi oqlandi. Ular ozodlik, mustaqillik kurashchilari sifatida yangi o'zbek tarixi kitoblaridan joy oldi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, vatan Hurriyati yo'lida Rus bosqiniga qarshi chiqqan ozodlik harakati a'zolarining hayot yo'li O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab qayta tiklana boshlandi. Bunday ezgu ishlar bugungi kunda ham davom etayotir. Jumladan, yaqinda Forishlik ijodkor pedagog Anvar Javlonov Abdurahmon jevachi haqida yana bir tarixiy haqiqatni ruyobga chiqardi. Anvarjon Jevachining bugungi kunda hayot bo'lgan avlodlari bilan suhbatlashib, ularning xotiralarini yozib oldi. Tarixiy ma'lumotlarni qayta o'rganib, «TOF burguti» deb nomlangan tarixiy qissani o'quvchilar hukmiga havola qildi. Kitobda Abdurahmon jevachining butun o'y-xayollari, orzu umidlari aks etgan. Albatta, xalqimiz vatan ozodligi uchun kurashganlarni unutmaydi, ularni qahramon deb biladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1916-yil qo'zg'olonining xorijiy tarixshunoslikdagi o'rni juda yuqori bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, qo'zg'olon mohiyati, sabablari haqidagi xolisona xulosalari qayd etilgan. Sovet tarixshunosligidan farqli ravishda, qo'zg'olonning Turkistondagi Rossiya hukmronligiga qarshi qaratilgani e'tirof etilgan, shuningdek qo'zg'olonning umumxalq va ommaviy kurash tusini olgani ta'kidlangan. Yuqorida to'xtalgan voqealarimiz natijasida 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi arafasida Turkistonda murakkab bir ijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga kelganligidan dalolat beradi. Shuningdek, imperatorning ushbu xatosida tarixshunoslik shuni yoritadiki, 1917-yil fevralida Rossiyada inqilob yuz berdi, podsholik Rossiyasi quladi. Butun mamlakat bo'ylab hurriyat, ozodlik keng quloch yoydi. Jadidchi shoir Abduldamid Cho'lpon bu inqilobni Fransiyadagi XVIII asrdagi buyuk inqilobga tenglashtirdi. Ayni shu fevral inqilobidan keyin O'rta Osiyodagi jadidchilik harakatida, jadidlar faoliyatida tamomila yangi davr boshlandi, yangi sahifa ochildi. Jadidlarning o'z maqsad va istaklarining ro'yobga chiqishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy vaziyat, sharoit yuzaga keldi.[6. B 67]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu ma'lumotlarni biz tarixshunoslarning ilmiy ko'rsatmalarga asoslangan dalillar asosida yoritishga harakat qildik. Misol uchun "O'zbekistonning yangi tarixi" asarining birinchi jildida, Ibrohim Yorqinning Anqara shahrida chop etilgan Turk madaniyati jurnalida "Turkistonda 1916-yil isyoni" nomli maqolalaridan foydalandik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida»;

- 2.Safarov N ., Unutilmas kun [1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonidan xotiralarim], T., Boku, 1932;
3. Haydarov X., Jizzax viloyati tarixi, T., 1996;
4. Ziyayeva D., Turkiston milliy ozodlik harakati, T., 2000;
June, 2022
5. <https://muegn.ru/uz/prezentacii/udivitelnye-fakty-o-rossii-interesnye-fakty-pro-rossiyu-samuyu-bolshuyu.html> © muegn.ru
6. Sobirov, J., & Yunusova, H. (2022). MA'RIFATLI JAMIYAT YARATISHDA O'ZBEK YOSHLARINING SALOHIYATI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(2), 11-14.
- 7.Haydarov X. “Jizzax tarixidan lavxalar”.